

## VERBALIZATION OF OPPOSITE CONCEPTS IN SYNTACTIC ANTONYMS

**Nasiba Sayidmahamadovna SAYIDIRAHIMOVA**

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor  
Department of Uzbek and Foreign Languages  
International Islamic Academy of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekistan

## SINTAKTIK ANTONIMLARDA ZID MUNOSABATDAGI KONSEPTLARNING VOQELANISHI

**Nasiba Sayidmahamadovna SAYIDIRAXIMOVA**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
O'zbek va xorijiy tillar kafedrası  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Toshkent, O'zbekiston

## ВЕРБАЛИЗАЦИЯ ПРОТИВОПОЛОЖНЫХ КОНЦЕПТОВ В СИНТАКСИЧЕСКИХ АНТОНИМАХ

**Насиба Сайидмахамадовна САЙИДРАХИМОВА**

Кандидат филологических наук, доцент  
Кафедра узбекского и иностранных языков  
Международная исламская академия Узбекистана  
Ташкент, Узбекистан [sayidiraximova@gmail.com](mailto:sayidiraximova@gmail.com)

### For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Sayidiraximova N.S. Sintaktik antonimlarda zid munosabatdagi konseptlarning voqelanishi // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 6. — B. 40-51.

<https://doi.org/10.36078/1735201098>

**Received:** October 18, 2024

**Accepted:** December 17, 2024

**Published:** December 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Abstract.** Modern linguistics allows us to look at language phenomena from a completely different perspective. The reason is that any language and speech phenomena are analyzed together with the human factor. Such an anthropocentric paradigm approach to language phenomena makes it more urgent to re-examine the issues studied so far because such an approach has been achieved in the science of linguistics, expands the achievements, and fills them with completely different scientific conclusions. It is known that the phenomena of synonymy, antonymy, and homonymy in linguistics are applied in science - they are widely analyzed from the point of view of historical-typological, formal-structural, and system-structural linguistics; in this regard, many scientific studies were conducted, monographs were created. However, these phenomena have not been sufficiently studied in the above-mentioned new - anthropocentric paradigm. In our opinion, such an approach further expands the terminological apparatus of these issues. For this, it is very important to analyze these events together with the human factor. It is known that the laws of dialectics are universal and specific, that the categories of necessity and chance, cause and effect themselves show the essence of the main contradiction and at the same time express mutual generality even when they are considered as separate categories.

**Keywords:** anthropocentric paradigm; cognitive linguistics; extralinguistic factors; the issue of the cognitive potential of antonyms; the possibilities of antonyms to create contrast; the realization of the principle of contrast.

**Annotatsiya.** Zamonaviy tilshunoslik ilmi til hodisalarini mutlaqo boshqacha rakursda ko'rish imkonini beradi. Sababi unda har qanday til va nutq hodisalari inson omili bilan birgalikda tahlil etiladi. Til hodisalariga bunday — antroposentrik paradigmada yondashuv esa, shu kungacha o'rganilgan masalalarni yana bir karra qarab chiqishni dolzarblashtiradi, sababi bunday yondashuv tilshunoslik ilmida qo'lga kiritilgan yutuqlarni yanada kengaytirgan holda, mutlaqo boshqa ko'rinishdagi ilmiy xulosalar bilan to'ldiradi. Ma'lumki, tilshunoslikda sinonimiya, antonimiya hamda omonimiya hodisalari fanda amal qilingan — tarixiy-tipologik, formal-struktural va sistem-struktur tilshunoslik nuqtayi nazaridan keng tahlil etilgan, bu borada ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, monografiyalar yaratilgan. Biroq ushbu hodisalarni yuqorida qayd etilgan, yangicha — antroposentrik paradigmada o'rganilgan ishlar hali yetarli emas. Bizningcha, bunday yondashuv mazkur masalalarning terminologik apparatini yanada kengaytiradi. Buning uchun esa ushbu hodisalar inson omili bilan birgalikda keng tahlil etilishi o'ta muhim. Shu bois mazkur maqolada asosiy e'tibor, antonimiyaning tildan tashqari hodisalarda aks etishi, olam, borliq, narsa va hodisalarni zidlashda inson tafakkurining o'rni, dialektika qonuniyatlari — umumiylik va xususiylik, zarurat va tasodif, sabab va oqibat kategoriyalarining o'zi ham asosiy zidlik mohiyatini ko'rsatishi va, ayni damda, ular alohida-alohida kategoriya sifatida qaralganda ham o'zaro umumiylikni ifoda etishi xususida fikr yuritishga qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** antroposentrik paradigma; kognitiv tilshunoslik; ekstralingvistik omillar; antonimlarning kognitiv potentsiali masalasi; antonimlarning kontrastlik hosil qilish imkoniyatlari; kontrastlilik prinsipining reallashishi.

**Аннотация.** Современное языкознание позволяет нам взглянуть на языковые явления совершенно с другой стороны. Причина в том, что в новом подходе все языковые и речевые явления анализируются вместе с человеческим фактором. Новый антропоцентрический подход к языковым явлениям делает более актуальным переосмысление изученных проблем, поскольку такой подход уже достигнут в науке языкознание, расширяет достижения и наполняет их совершенно иными научными выводами. Известно, что явления синонимии, антонимии и омонимии в языкознании имеют прикладное значение, и в науке они широко анализируются с точки зрения историко-типологического, формально-структурного и системно-структурного языкознания, в связи с этим проведено множество научных исследований, созданы монографии. Однако исследований этих явлений с точки зрения антропоцентрической парадигмы пока недостаточно. По нашему мнению, такой подход еще больше расширяет и терминологический аппарат данных вопросов. Для этого очень важно анализировать эти явления вместе с человеческим фактором. Известно, что законы диалектики всеобщности и конкретности, что категории необходимости и случайности, причины и следствия сами по себе показывают суть основного противоречия и в то же время выражают взаимную общность даже тогда, когда они рассматриваются как отдельные

категории. Исходя из этого, в данной статье рассматриваются вопросы отражения антонимии в неязыковых явлениях; изучаются когнитивные вопросы проявления оппозиции вещи и бытия в человеческом мышлении.

**Ключевые слова:** антропоцентрическая парадигма; когнитивная лингвистика; экстралингвистические факторы; проблема когнитивного потенциала антонимов; возможности антонимов создавать контраст; реализация принципа контраста.

## Kirish

Bugungi kunga kelib, tilshunoslarni borgan sari ko'proq tilning sistemaviy tabiatini aniqlash, borliqdagi har bir hodisaning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi, o'zaro aloqasini o'rganish qiziqtirib kelmoqda. Narsa va hodisalar o'rtasidagi universallik shakli til tizimida leksik va grammatik sath birliklarining o'zaro qarama-qarshi munosabatga kirisha olishida ko'rinadi.

Shu bois hozirgi kun zamonaviy tilshunosligidagi eng dolzarb masalalardan biri antonimiya hodisasiga xos ilmiy nazariyalarni psixolingvistika hamda kognitivistika, aniqrog'i, antroposentrik paradigmada o'rganish sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgacha, antonimiya asosan, turli prozaik uslub va janrlar materiallari asosida, xususan, she'riyatda antonimlarning qo'llanilishi, emotsional-estetik vazifa bajarishi va, asosan, muallifning stilistik imkoniyatini aniqlash maqsadida o'rganib kelindi. Olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor she'riy asarlarda antonimlarning kontrastlik hosil qilish imkoniyatlariga qaratildi. Shuningdek, bu borada, xorijiy olimlar (1; 11; 10) va o'zbek tilshunoslari (4; 3; 2) tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi, ko'plab dissertatsiyalar yoqlandi. Biroq bir tomondan, kontrastlilik prinsipining reallashishi uchun antonimlar bilan bir qatorda antonimik umumiy integral semaga ega bo'lmagan birliklar ham qatnashishi mumkin. Ikkinchi tomondan esa, antonimlar o'rtasidagi munosabatlarni kontrastlikka tenglab bo'lmaydi, shu sababli, og'zaki nutqiy faoliyatda va nasriy asarlarda antonimiyaning yuzaga kelishini o'rganishni hamma vaqt dolzarblashtiradi. Aytish mumkinki, tadqiqotchilar nasriy va nazmiy asarlardagi antonimiya hodisasini o'rganishda xuddi sinonimlarni o'rganishdagi singari, dastlab, asosiy e'tiborni antonimlarning stilistik funktsiya bajarish imkoniyatiga qaratishdi. Biroq antonimlarning kognitiv potentsiali masalasi hozirgacha ochiqlicha qolib ketmoqda.

## Asosiy qism

Antonimiya nazariyasini ishlash XX asrning 50-yillaridan leksik antonimiyani o'rganishga bag'ishlangan ishlar bilan boshlangan. Ushbu masalani o'rganishda L. A. Novikov (9), V. N. Komissarov (6), L. A. Vvedenskaya, E. N. Miller va M. R. Lvov kabi tilshunoslarning hissasi katta bo'ldi. Ularning ishlari, bir tomondan, leksik antonimiyaning nazariy asoslarini yaratish va terminologik apparatini shakllantirish uchun xizmat qilgan bo'lsa; ikkinchi tomondan, tilshunoslikda tilning faqat leksik

sath bosqichi birliklari o'rtasidagi o'zaro zidlik munosabati ekanligining qat'iy belgilanishiga sabab bo'ldi. Leksik antonimlar nutqda doimiy tarzda kuchli qarama-qarshilik pozitsiyasida uchrashi tabiiy, shu bois ular ko'p holatlarda qarama-qarshilikni ifodalashning eksplitsit vositasi sifatida qaraladi. Biroq leksik sath birliklaridan tashqari bunday munosabatlar tilning, garchi leksik birliklariga nisbatan abstraktroq ko'rinishida namoyon bo'lsa-da, grammatik: morfologik va sintaktik sath birliklari yordamida ham ifodalanishi mumkin. Demak, aytish mumkinki, antonimiya, tilning grammatik sathiga ham xos hodisa sanaladi. Bu haqida dastlab taniqli fransuz tilshunos olimi Sh. Balli ham to'xtalib, o'zining "Umumiy tilshunoslik va fransuz tili masalalari" (5) nomli monografiyasida bu boradagi fikrlarini ifoda etgan. Keyinchalik uning fikrlari G. V. Valimova, L. A. Novikov, R. Marten, V. N. Kononenko, Y. N. Vlasovlar singari olimlarning ilmiy ishlarida yanada rivojlantirildi.

Antonimiya hodisasini tilning barcha sath birliklari o'rtasidagi semantik, ya'ni ko'pqirrali lingvistik hodisa sifatida tan olish, 1998-yil chop etilgan "Russkiy yazik" nomli ensiklopediyada "Antonimiya tilning barcha sath birliklari: so'z, morfemalar, sintaktik konstruksiyalar semantik qarama-qarshiligi (8), deya berilgan ta'rifda o'z aksini topdi.

Xuddi shunday ta'rif bizning mazkur tadqiqot ishimizda ham qat'iy ilgari suriladi. Ishda antonimiyani ko'pqirrali lingvistik hodisa sifatida qarash, masalaga boshqacha yondashish, fanda bu boradagi g'oyalar dinamikasiga ta'sir etib, nazariyalarni boshqacha talqin etishga turki bo'ldi.

Fanda ma'lumki, morfologik antonimlarga so'zning o'zagidagi leksik ma'noni aniqlovchi (*tuzli — tuzsiz, baodob — beodob, serunum — unumsiz*), so'z shakllariga xos kategorial oppozitsiyalar yordamida shakllangan antonimik juftliklar (*bordi — borgan edi, aytdi — aytmoqchi, ko'rildi — ko'rdi* kabi) so'z tarkibidagi so'z yasovchi morfemalar, shuningdek, so'z turkumlari o'rtasidagi antonimik (*qiziq — qiziqarli, aql — aqli, gap — gapdon*) munosabatlarning yuzaga kelishi kiritiladi.

Sintaktik antonimlarga esa til sistemasida qarama-qarshi ma'noga ega bo'lgan (potensial antonimli) va nutqda bir leksik **to'ldirilishi** (aktuallashtiruvchi antonimlar) bilan reallashadigan gap modellari kiritiladi. Bunday o'rinda, ya'ni muhimni aktuallashtirish asosida birinchi plandagi leksik fondagi qarama-qarshilik aynan grammatik semantikani yuzaga keltiradi.

Masalan, o'zida inkor operatorini o'z ichiga olgan modellar (*U ishladi — U ishlamadi*) yoki predikat aktantlarning konversiyasi kuzatiladigan, ya'ni predikativ yadro shaklini o'zgartirmagan holda subyekt va obyekt almashadigan modellar (*Qiz uni tanladi — U qizni tanladi*) nazarda tutiladi.

Ifodadagi qarama-qarshilik sintagmatikada doimiy ravishda yaqinlashib, ularning semantikasidagi zidlik ancha aniq bo'lsagina, morfologik yoki sintaktik antonimlar haqida gapirish mumkin bo'ladi.

Morfologik va sintaktik antonimiyadan tashqari tilda tilning eng yuqori sathi ierarxiasini namoyon etuvchi — matn tilshunosligida qaraluvchi kontekstual antonimlar ham mavjud bo'lib, ular ham katta

sintaksisning obykti sanaladi. Ularga antonimiyaning quyidagi turlari taalluqli sanaladi:

1. Muayyan matn mazmuni doirasida qarama-qarshilikni ifoda etuvchi kontekstual (individul-muallif) antonimlar. Masalan:

*“U ruhan qotib qolgan, qattiq tushkunlikka tushib qolgan edi. Anora esa, buning aksi, juda xursand va faol edi”* (A. Muxtor).

2. Substitutsion antonimlar — istalgan soʻz va konstruksiyalarni leksik va grammatik **antonimlar bilan potentsional almashtirish mumkin boʻlgan antonimik** oppozitsiyaga kirishuvchi soʻz va konstruksiyalar. Masalan:

*“Agar sen buni bajara olsang, bunda hamma bajara oladi. Mendan tashqari”* (Mendan tashqari = bajara olmayman).

*“Men oʻzimni juda yaxshi his qilyapman. Sendan farqli oʻlaroq”* (Mendan farqli oʻlaroq sen = u aqldan ozgan).

3. Oʻzida tavsiflovchi, keng tarqalgan mazmunni sintaktik antonim orqali uzatishning potentsial imkoniyati sanalgan antonim-parafrazalar. Masalan:

*“Agar hammasi joyida ketsa, sizning bir tola sochingiz ham toʻkilmaydi”* / *“Agar hammasi biz oʻylagandek ketmasa, dunyo ertagalik kunningi sizsiz kutib oladi.* (T. Malik). Bunda **zarar koʻrmoq** frazemasi sintaktik antonimga joylanayotganligini koʻrishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollar antonimiya nazariyasiga tegishli terminlar tizimining dinamik xarakterini kuzatadi. Bu esa, nazarimizda, antonimiya fenomenini yangi lingvistik paradigmalarda koʻrib chiqish muhimligini dolzarblashtiradi. Shu oʻrinda, antonimiya hodisasini, kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan koʻrib chiqishga harakat qilamiz.

Tilning bizni oʻrab turgan borliq bilan uzviy bogʻliqligi masalasini oʻrganish tilda sodir boʻladigan koʻpgina hodisalarni ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatdan anglashga yordam beradi. Maʼlumki, narsa va hodisalar, jarayonlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar, ularning oʻzlari kabi real jarayonlar sanaladi (12). Ular oʻzaro bogʻliq va qaysidir maʼnoda, til universaliasiga boʻysunadi. Demak, har qanday narsa va hodisa nafaqat farqli, balki oʻzaro universal, yaʼni biri ikkinchisi bilan bogʻliq hamdir. Leksik birliklar oʻrtasidagi qarama-qarshilik, yaʼni antonimlar — tilning barcha sathiga xos birliklarning semantik zidlanishi asosida amalga oshadi. Tilshunoslikda antonimlarni belgilashda quyidagi taʼrif ham qoʻllaniladi, yaʼni antonimlar — bu tilning maʼnosiga koʻra zid boʻlgan nomitativ birliklari boʻlib, ular mohiyatiga koʻra obyektiv borliqdagi bir turdagi hodisalarni oʻzaro qarama-qarshiligini ifodalash uchun xizmat qiladi. Antonimiya hodisasi bilan shugʻullangan aksariyat tadqiqotchilar ekstralingvistik omillar asosida soʻz maʼnosining zidlanishi, determinatsiyalanishini inkor etadilar. Xususan, L. A. Novikovning bu boradagi ishlarida “predmetlar va ularning xossalari oʻz-oʻzidan qarama-qarshi va oʻzidan (konkret-predmet) maʼnosiga koʻra denotativ emas. Baʼzi tilshunoslar tomonidan antonimlardagi zidlik munosabatini verbal tushunish ularni til sistemasidagi bir belgi, xususiyat, munosabatni ifodalovchi soʻzlar guruhiga kiritish natijasi sifatida qaraladi” (9). Baʼzi tadqiqotchilar antonimlar haqida gap ketganda, ular antonimlarning

umumiyligi — universalligi kishilar tomonidan belgilangan narsa yoki hodisalarning real xususiyatlaridan emas, balki ularning o'ziga xos semantik xususiyatlaridan kelib chiqadilar. Sababi qarama-qarshi hodisa va narsalarning o'zi mavjud emas, degan fikrni ta'kidlaydilar. Nazarimizda, ushbu fikr tilning obyektiv borliq bilan o'zaro bog'liqligini anglashga yordam beradi. Dialektika qonuniyatlari — umumiylik va xususiylik, zarurat va tasodif, sabab va oqibat kategoriyalarining o'zi ham asosiy zidlik mohiyatini ko'rsatadi, biroq ular alohida-alohida kategoriya sifatida qaralganda ham o'zaro umumiylikni ifoda etadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, birinchidan, qarama-qarshilik munosabati real mavjud hodisa; ikkinchidan, ular bir-birini taqozo etib, umumiy bir paradigmani ham tashkil etadi. Yuqoridagi ta'rifga qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, tilning semantik tomonida muayyan xalqning tashqi olam haqidagi determinatsiyalashgan tasavvuri aks etadi. Bunday determinatsiyalashishni, eng avvalo, konkret til hodisalari misolida ko'rsatish mumkin. Biroq tildagi qarama-qarshi ma'nolar haqiqatda mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni aks ettirmaydi.

Masalan, *Men kichkinaligimda hovli katta ko'rinar edi, endi menga barcha narsa kichkina bo'lib ko'rinyapti. Men kichkina edim — hovli esa katta, men katta bo'ldim — hovli esa ko'zimga kichiklashdi.*

**Katta-kichik** garchi real borliqda mavjud bo'lgan absolyut zidlikni ifoda eta olmasa-da, umumqabul qilingan antonim sanaladi. Masalan, *pashsha, yong'oq, kapalak, chivin, koptok, chigirtka, olma* va hokazolar boshqalariga nisbatan katta bo'lishi mumkin bo'lishi bilan birga, *fil, sher, begemot, sigir, timsoh, tuyaqush* boshqasiga solishtirilganda kichik bo'lishi ham tabiiy. Shuningdek, aynan bir predmet, masalan, *shahar, davlat, fabrika, zavod* kishilarning baholashiga ko'ra katta yoki kichik bo'lishi ham mumkin. Xuddi shu singari aynan bir kishi tomonidan bir predmetning o'zi yuqoridagi misollar singari turli vaqtda turlicha zidlantirilishi mumkin. Shuningdek, *katta* va *kichik* so'zlari orqali ifoda etiladigan zid ma'no obyektiv mavjud sanaladi. Aynan bir hovli bir so'zlovchi nutqining o'zida nutqiy vaziyat va vaqt — zamon bilan bog'liq ravishda hajmiga ko'ra *katta* yoki *kichik* deb baholanib, ifoda etilishi mumkin. Albatta, *katta quyon kichik fildan kichik bo'lishi aniq, biroq katta va kichik quyon o'rtasidagi qarama-qarshilik kishida shubha uyg'otmaydi, ya'ni bunday zidlik obyektiv bo'ladi yoki o'zida belgilangan konkret obyektga tegishli bo'lib, mavjud predmet rivojlanishi jarayonidagi farqlanish natijasida yuzaga keladi. Gap shundaki, qarama-qarshilik absolyut hodisa emas, balki relyativ sanalib, o'ziga xos o'ringa ega va muayyan belgilangan chegaralar asosida yuzaga keladi. Bunday antonimlar tilda juda ham ko'p sanaladi.*

Masalan, *yaqin-uzoq (kelgusi bekatgacha, imtihongacha, uygacha, yilgacha); tez-sekin (piyoda yurmoq, samolyotda uchmoq); qattiq-yumshoq (obi non, gapirmoq), uzun-qisqa (qora soch, eski xotira)* va hokazo.

Badiiy adabiyotlardan bunday antonimik juftliklarga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Masalan, “*Qolgan hammasi shu qadar tez va ayni damda juda sekin yuz berganday tuyuldi*”. (O. Yoqubov “Olmos kamar”).

*Qanday ahmoq odam! — o‘yladi, Doniyor. Aytishlaricha, juda aqlli edi...*

Tilda real mavjud bo‘lgan absolyut qarama-qarshilikni ifoda etishga mos kelmaydigan antonimlar funksionallashishini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “*Suyuqlikning gazlashish holatiga o‘tishi bug‘lanish deb ataladi; gazlashish holatining suyuqlik holatiga o‘tishi esa kondensatsiya deb ataladi*” (7).

Fizik olimlar, tabiatda ikki qarama-qarshilik hodisasi — bug‘lanish va kondensatsiya jarayoni mavjudligini belgilashgan. O‘z navbatida, tilshunos olimlar ham tilda ikkita fe‘l, ya‘ni **bug‘lanmoq** va **kondensatsiyalanmoq** fe‘llari mavjudligi, ular ikki alohida harakat-holatni ifodalash uchun xizmat qilishini belgilaydilar. Bu ikkala so‘z, ayni damda, ikki jarayoni nomi — **bug‘lanish** va **kondensatsiya** jarayonining nomi sifatida antonim sanalishini ham ta‘kidlaydilar. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, **bug‘lanish** va **kondensatsiya** antonimik juftligi tabiatdagi absolyut xarakterga ega bo‘lgan real qarama-qarshilikni ifoda etadi.

Borliqdagi real mavjud qarama-qarshilik munosbatlarini belgilash tabiiy fanlarga oid terminlarga xos sanaladi, biroq ular hamma vaqt ham tilda belgilangan so‘zning semantik ma‘nosi bilan u anglatadigan narsa-predmetlar, hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muvofiqlikni ifoda etmaydi.

Masalan, “*Biron-bir jismni qarama-qarshi tomonga harakatlanishga olib keladigan ikki xil kuch bo‘lib, ulardan biri ijobiy, ikkinchisi esa salbiy kuch sanaladi*”. Aslini olib qaraganda, mana shu ikki hodisaning tildagi nomlanishida uning mohiyati bilan bog‘lanmaganligini ko‘rish mumkin, ya‘ni ushbu hodisalar shartli nomlangan. Ularni *o‘ng* va *chap* yoki *to‘g‘ri* va *teskari*, *boshlanish* yoki *qaytish harakati*, deb nomlansa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Tilshunos V. N. Komissarov bu borada to‘xtalib, narsa va hodisalarga xos qarama-qarshilikni inkor etgan holda, “Antonim so‘zlardagi qarama-qarshilik ular anglatayotgan narsa-hodisa bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Antonim so‘zlar tabiiy xossasiga ko‘ra qarama-qarshi bo‘lgan narsa yoki hodisalarni nomlaydi, deyish uchun asos mavjud emas. Masalan, *oq* va *qora* ranglarni o‘z tabiati, mohiyatiga ko‘ra *qizil* va *siyohrang* (infraqizil va ultrasiyoh)ga qaraganda, spektral jihatdan o‘zaro zid deyish qanchalik to‘g‘ri. Yoki yana bir misol, *osmon yerdan*, *osmon* va *suv* o‘rtasidagi masofadan ko‘ra obyektiv ravishda ancha yiroq. Aksincha, predmet va hodisalar xarakterini nomlovchi so‘z-antonimlar, qaysidir ma‘noda, semantik yaqinlikni ifoda etadi. Ular o‘rtasida bu yaqinlik shu bilan beligilanadiki, antonimik guruhlarning barcha a‘zolari bir turdagi, bir kategoriyaga taalluqli narsa-predmet va hodisalarni ifolaydi” (6), deya ta‘kidlaydi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*issiq*” yoki “*sovuv*” antonimlari haroratni, “*baland*” va “*past*” antonimlari esa vertikal, tik chiziqdagi predmetlarni atash uchun xizmat qiladi.

V. N. Komissarovning fikricha, nutq jarayonida narsa-predmet va hodisalarni so‘z-antonimlar yordamida zidlash o‘z-o‘zidan to‘g‘ridek tuyuladi. L. A. Novikov ham Komissarovning fikrini davom ettirgan holda, quyidagi: “Ayrim odamlar haqida ularni qiyoslab gapirganda, masalan,

Petrovning bo‘yini *158 sm*, Nikolayevning bo‘yini esa *189 sm / Petrov past bo‘yli*, deyishimiz mumkin, “*Nikolayev esa baland bo‘yli*” kabi misollarni keltiramiz. Bunday qiyosda faqat ikkinchi gapda baho ottenkasi mavjud bo‘lib, “**past**” va “**baland**” antonimlarini yuzaga keltiradi. *158 sm* va *189 sm* bo‘y sof nominativ “obyektiv” xarakterdagi antonimni ifoda etmaydi, ular faqat faktik ma’lumotlarning konstotatsiyasida antonimiya hosil qilishi mumkin” (9), deya ta’kidlaydi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, berilgan misollar tahlili ham yuqorida ta’kidlangan fikrni to‘liq isbotlamasligi mumkin. Sababi buning uchun o‘z mazmuniga ko‘ra farqlanuvchi illyustratsiyalar zarur bo‘ladi. Masalan, borliqdagi narsa va hodisalarni zidlashda faqat belgi-xususiyatlarnigina ifodalovchi antonimlar (*baland — past*) emas, balki miqdor (*qo‘shilmoq — ayrilmoq*), makon (*yaqinlashmoq — uzoqlashmoq*) va hokazolar zarur bo‘ladi. Xususan, *qo‘shilmoq — ayrilmoq, yaqinlashmoq — uzoqlashmoq* tipidagi antonimlarning ma’nosini tahlil qilish, diametral qarama-qarshilik asosida amalga oshiriladi. Ya’ni ikki va undan ortiq kishilarning to‘g‘ri yoki ko‘chma ma’noda bir-biriga yaqinlashishi yoki uzoqlashishi, so‘zsiz, bir-biriga zid hodisa sanaladi. Masalan,

“*Ular ko‘p hollarda tashqi bosimga berilib, xalqaro munosabatlarga xos masalalarni hal etishda hamkorlarini yaqinlashtirmaganlar, balki uzoqlashtirganlar*” (gazetadan);

“*Emblema sayyoramizning barcha kontinentlari taqdirlarining uzilmas birligini simvollashtiradi. Sayyorada yashovchi katta va kichik xalqlar minglab chegaralar bilan ajralgan bo‘lishiga qaramay, ular dunyoni, insoniyatni yakson qiluvchi yadro urushlaridan asrash yo‘lidagi umummanfaatiga ko‘ra birlashgan*” (Gazetadan).

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, haqiqatan, antonimlarning ayrim guruhlari tabiatdagi real mavjud, mutlaq qarama-qarshilikni ifoda etsa, ayrimlari semantik jihatdan narsa-predmet va hodisalarning tafakkur — ongdagi kishilar tomonidan idrok etilgan nisbiy qarama-qarshiligini ifoda etadi. Shundan kelib chiqqan holda, antonimlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

**I. Tabiatda real mavjud, mutlaq qarama-qarshilikni ifoda etuvchi antonimlar.**

**II. Kishilar tafakkurida idrok etilgan nisbiy qarama-qarshilikni ifoda etuvchi antonimlar.**

Birinchi guruhdagi antonimlarga, o‘z navbatida, antonimlarning yana ikki ko‘rinishini kiritish mumkin. Masalan:

**1. Material borliqda mavjud bo‘lgan mohiyatan qarama-qarshilikni ifoda etuvchi jarayon va hodisalarni ifoda etuvchi antonimlar:** *yassi — qabariq* (jismning ustki qismi), *qotmoq — erimoq* (metallni qizdirish jarayoni), *ajralish — so‘rilish* (issiqlik hodisalaridagi energiya) hodisasi, *sekinlashish — tezlashish* (jarayoning), *pasayish — balandlashish* (tovush to‘lqini) hodisasi va hokazo.

Xo‘sh, bu antonimlar qanday qilib bir turkumga birlashtiriladi? Tilning istalgan tashuvchisi hech qanday qiyinchiliksiz intuitiv tarzda so‘zning zid juftini topa oladi. Biroq kognitiv nuqtayi nazardan kishilar *issiq — sovuq* va *yaqinlashish — uzoqlashish* kabi antonimlarning



ma'nosidagi real borliqdagi hodisa, jarayondagi zidlikni so'zlarni zidlash orqali ifoda etadilar. Bizningcha, bunday holatlarda kishilar tafakkurida narsa-predmet va hodisalarning mutlaq yoki nisbiy qarama-qarshiligini, ya'ni fikrlash zanjirini aniqlash antonimlarni chegaralashning eng maqbul usuli sanaladi.

Keling, mana shu o'rinda, *issiq* — *sovuq* antonimik juftligini tahlil qilib ko'ramiz. Bu ikki so'zning zidlanishiga sabab bo'layotgan belgi ular o'rtasidagi qandaydir neytral holatning, ya'ni boshlang'ich (*sovuq bo'lmagan* va *issiq bo'lmagan*) nuqta (*chiziq, belgi*), qarama-qarshilikning boshlanish (*paydo bo'lish*) belgisining mavjudligi sanaladi. Bu belgilar har bir kishi ongida (*hajm, belgi* va *daraja*) qabul qilish xarakteridan kelib chiqqan holda uning tafakkurida turlicha aks etadi. Shundan kelib chiqqan holda, *issiq* va *sovuq* antonimik juftligi ham ana shu omilga bog'liq ravishda turli narsa-predmet va hodisaga nisbatan qo'llanishi mumkin.

## 2. Jamiyatda mavjud obyektiv real qarama-qarshi jarayon, hodisa, holatga xos qarama-qarshilik munosabatini ifodalovchi antonimlar.

Masalan, *hayratlanmoq* — *qahrulanmoq*, *bezovtalanmoq* — *tinchlanmoq*, *savol* — *javob* (muloqot shakli), *do'stlik* — *dushmanlik* (kishilar o'rtasida), *unutmoq* — *eslamok*, *kutmoq* — *kuzatmoq* (mehmonlarni), *ichki* — *tashqi* (hujjatlar), *kirish* — *chiqish* (ishga, ishdan), *yutmoq* — *yutqazmoq* (shashka), *boylamoq* — *yechmoq* (ipni), *jo'natmoq* — *olmoq* (xatni), *tikmoq* — *so'kmoq* (chokni) va hokazo.

Tilda turli funksional uslub turlariga xos antonimlarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, badiiy adabiyotda — “*Kim o'zgalardan biror nima olmasa, kimgadir nimanidir bermaydi ham*”; ilmiy-ommabop xarakterdagi asarda — “*Alohida olingan fuqaro jamiyatga qanchalik ko'p foyda bersa, oxir-oqibat undan shuncha ko'p moddiy manfaat oladi*”; gazetadan — “*Minglab dalillar tizimni tashkil etmaydi, sababi sinchkovlik bilan olib borilgan kuzatuvlar ham mohiyatni yoritmaydi, balki yanada xiralashtiradi*”; psixologiyaga oid adabiyotlarda — “*Qiyofa kishilarni chalg'itadigan shunchaki tashqi ko'rinish bo'lib, inson qalbidagi sevgi va nafratni ko'rsatib bera olmaydi*”; falsafaga oid adabiyotlarda — “*ayrimlar, iloji boricha, arzonaron narxga xarid qilishni istasa, boshqalar qimmatga sotishni istaydilar*”; pedagogikaga oid adabiyotlarda — “*Ilmiy-tadqiqot ishlari bizga ko'plab savollarga kerakli javoblarni beradi*”.

Shuni ta'kidlash kerakki, birinchi guruhdagi antonimlarni, shartli ravishda, yana ikki turga ajratish mumkin. Sababi ularning birinchisi umumjamiyat hayotida mavjud bo'lgan qarama-qarshilik (*ko'tarilish* — *pasayish*, *tarqatish* — *birlashtirish*) ma'nosini ifodalaydi. Bunday guruhlash, eng avvalo, umumjamiyat hayotidagi real qarama-qarshiliklar mavjudligini ko'rsatish maqsadida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, shuni ham belgilash lozimki, umumjamiyat hayoti material borliqning tarkibiy qismi sifatida material borliqning eng yuqori mahsuli sanalgan ongning funksionallashishi bilan bog'liq.

Antonimlarning ikkinchi yirik guruhiga yana quyidagi turlarini ham kiritishimiz mumkin:

1. Inson tafakkuriga bog‘liq bo‘lmagan tabiatdagi real mavjud hodisa va jarayonlarni ifodalovchi yoki xarakterlovchi hamda zidlik ma’nosini chegarovchi antonimlar.

Bunday antonimlardagi zidlik ma’nosi predmet va hodisalarga tegishli bo‘lib, aniq xarakterni tashuvchi antonimlar sanaladi.

Masalan, *boy* — *kambag‘al* (dehqon, odam), *yaqin* — *uzoq* (qarindosh, yulduz), *past* — *baland* (uchmoq, qaldirg‘och, turnalar), *ko‘p* — *kam* (kutmoq, nonushtani, maqola nashrini), *qattiq* — *yumshoq* (ko‘rpacha), *boshlanishi* — *yakuni* (kunning, dalaning), *yirik* — *mayda* (guruch, soch), *yoshlik* — *keksalik* (inson), *eski* — *yangi* (ko‘ylak, shim), *och* — *to‘q* (devor rangi, rasm), *issiq* — *sovuq* (tundra va tropik o‘lkalar aholisi) singari.

Qavs ichida berilgan so‘zlar, qaysidir ma’noda, antonimlar ma’nolarining tegishlilikini illyustratsiyalash uchun qo‘llaniladi. Masalan, tepalik, *yulduz* so‘zlari yordamida *yaqin* — *uzoq* antonimlarining ma’nolarini illyustratsiyalash uchun yordam beradi: *eng uzoq ko‘ringan tepalik, aslida eng yaqin ko‘ringan yulduzdan yaqinroq yoki katta urug‘ hamma vaqt katta olmadan kichik* singari.

2. Tafakkurda subyektiv holatda qabul qilinadigan antonimlar bilan ularni borliqdagi real narsa, hodisa, jarayon, predmet va hokazolarni ifodalovchi yoki xarakterlovchi antonimlardan farqli qarama-qarshilikni ifoda etuvchi antonimlar.

Bunday antonimlar borliqdagi narsa, hodisalar bilan emas, balki insonni olamni ko‘rishi, yashash tarzi, urf-odati, qadriyatlarini bilan bog‘liq ravishdagi antonimik munosabatlarni ifodalaydi.

Masalan, *shirin* — *taxir* (maza-tam), *xunuk* — *chiroyli* (surat, kishi), *qo‘pol* — *muloyim* (qiz), *sodda* — *olifta* (yigit), *faol* — *nofaol* (talaba), *to‘g‘ri* — *noto‘g‘ri* (xatti-harakat, inson) kabi.

## Xulosa

Antonimlarning ayrim guruhlari tabiatdagi real mavjud, mutlaq qarama-qarshilikni ifoda etsa, ayrimlari semantik jihatdan narsa-predmet va hodisalarning tafakkur — ongdagi kishilar tomonidan idrok etilgan nisbiy qarama-qarshiligini ifoda etadi.

Antonimiyaning semantik asosini tashkil etuvchi qarama-qarshilik tushunchasining belgilanishida yagona fikrning mavjud emasligi terminologik qatlamdagi antonimiya tushunchasidagi farqlarni oydinlashtirish hamda antonimiya nazariyasini qayta ko‘rib chiqishni ham taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, terminologik tizimga kiritiladigan antonimlarni aniq tanlab olish prinsiplarini yaratish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan misollar ham antonimiya nazariyasiga tegishli terminlar tizimining dinamik xarakterini ko‘rsatadi. Bu esa, nazarimizda, antonimiya fenomenini yangi lingvistik paradigmalarda ko‘rib chiqish muhimligini dolzarblashtiradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, antonimiya masalasiga doir muammolar hali-hanuz o‘rganilishda davom etmoqda va bu, o‘z navbatida, mazkur muammoning ahamiyati va nazariy masalalarining kengayayotganligidan dalolat beradi. Demak, antonimiya nazariyasi tilning

yangi yoʻnalishlari bilan bogʻliq ravishda hamda tilga boʻlgan munosabatdan kelib chiqqan holatda rivojlanishda davom etsa, bizningcha, yana yangi va yangi hamda kutilmagan xulosalarga olib kelishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lutfullayeva D.E., Sayidiraximova N.S. Oʻzbek tilida sintaktik antonimlarni belgilash mezonlari // AnDU xabarlari. — 2015. — № 2. — B. 65–68.
2. Sayidiraximova N.S. Lisoniy ziddiyat va uning antonimo-sinonimik munosabatlardagi leksemalarda aks etishi // “Taʼlimda “Ustoz-shogird” tizimi — sifat va samaradorlik kafolati” mavzusida Respublika miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Navoiy, 2020. — B. 295–298.
3. Sayidiraximova N.S. Oʻzbek tilida antonimo-sinonimik munosabatlar (“Hibatul Haqoyiq” asari leksikasi misolida) // NamDU xabarlari. — 2019. — № 11. — B. 22–23.
4. Sayidiraximova N.S. Semantic classification of the syntax antonyms of Uzbek language // International Scientific Journal Theoretical & Applied Scienceyu. — 2020. — Issue 4, volume 84. — P. 670–673.
5. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. — Москва: Изд-во иностр. лит., 1955. — 416 с.
6. Комиссаров В. Н. Проблема определения антонима (О соотношении логического и языкового в семасиологии) // Вопросы языкознания. — 1957. — № 2. — С. 49–58.
7. Кошин Н.И., Ширкевич М.Г. Справочник по элементарной физике. — Москва, 1974. — 256 с.
8. Новиков Л. А. Антонимия // Языкознание. Большой энциклопедический словарь/ Под ред. В.Н. Ярцевой. — М.: Большая российская энциклопедия, 1998. — С. 28. (682 с.)
9. Новиков Л. А. Антонимия в русском языке. — Москва, 1973. — 289 с.
10. Седых Э. В. Контраст в поэзии как один из типов выдвижения: На прим. циклов стихотворений "Песни Неведения" и "Песни Познания" Уильяма Блейка: Дис...канд. филол. наук. — М., 1997. — 208 с.
11. Тимофеев Л.И. Поэтика контраста поэзии Александра Блока// Русская литература, 1961. —№ 2 — С. 98–107.
12. Философский словарь/ Под ред. М.М. Розенталя. — М.: Издательство политической литературы, 1975. — 496 с.

### References

1. Lutfullayeva D.E., Sayidiraximova N.S. *AnDU xabarlari*, 2015, No 2, pp. 65–68. (In Uzbek)
2. Sayidiraximova N.S. “*Taʼlimda “Ustoz-shogird” tizimi — sifat va samaradorlik kafolati*” mavzusida Respublika miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Navoiy (Proceedings of the Republican online scientific and practical conference "The "Teacher-Student" system

- in education – a guarantee of quality and efficiency"), Navoi, 2020, pp. 295–298. (In Uzbek)
3. Sayidiraximova N.S. *NamDU xabarlari*, 2019, No 11, pp. 22–23. (In Uzbek)
  4. Sayidiraximova N.S. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 2020, Issue 4, volume 84, pp. 670–673. (In Uzbek)
  5. Balli Sh. *Obshchaya lingvistika i voprosy frantsuzskogo yazyka* (General linguistics and issues of the French language), Moscow: Izd-vo inostr. lit., 1955, 416 p. (In Russian)
  6. Komissarov V. N. *Voprosy yazykoznaniya*, 1957, No 2, pp. 49–58. (In Russian)
  7. Koshin N.I., Shirkevich M.G. *Spravochnik po elementarnoi fizike* (Handbook of Elementary Physics), Moscow, 1974, 256 p. (In Russian)
  8. Novikov L. A. *Yazykoznanie. Bol'shoi entsiklopedicheskii slovar'* (Linguistics. Large Encyclopedic Dictionary), ed. V.N. Yartseva, Moscow: Bol'shaya rossiiskaya entsiklopediya, 1998, p. 28. (682 s.) (In Russian)
  9. Novikov L. A. *Antonimiya v rusском yazyke* (Antonymy in Russian), Moscow, 1973, 289 p. (In Russian)
  10. Sedykh E. V. *Kontrast v poezii kak odin iz tipov vydvizheniya: Na prim. tsiklov stikhotvorenii "Pesni Nevedeniya" i "Pesni Poznaniya" Uil'yama Bleika* (Contrast in poetry as one of the types of promotion: On the example of the cycles of poems "Songs of Ignorance" and "Songs of Knowledge" by William Blake), Doctor's thesis, Moscow, 1997, 208 p. (In Russian)
  11. Timofeev L.I. *Russkaya literatura*, 1961, No 2, pp. 98–107. (In Russian)
  12. *Filosofskii slovar'* (Philosophical Dictionary), ed. M.M. Rozental', Moscow: Izdatel'stvo politicheskoi literatury, 1975, 496 p. (In Russian)